

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR
VAZIRLIGI**



**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
SAMARQAND FILIALI**

**Texnikumlarni muvaffaqiyatli tamomlagan bitiruvchilar bilan oliy
ta’lim muassasalariga o‘qishga kirish imtihonlaridagi suhbat
asosida o‘qishga qabul qilish bo‘yicha**

**Buxgalteriya hisobi va audit (tarmoqlar bo‘yicha)
ta’lim yo‘nalishiga o‘qishga kirish imtihoni uchun
tuzilgan SUHBAT SAVOLLARI**

Samarqand – 2024

Texnikumlarni muvaffaqiyatli tamomlagan bitiruvchilar bilan oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirish imtihonlaridagi suhbat asosida o'qishga qabul qilish bo'yicha TDIU Samarqand filiali – Buxgalteriya hisobi va audit (tarmoqlar bo'yicha) ta'lim yo'nalishiga o'qishga kirish imtihoni uchun tuzilgan suhbat savollari

1. Aholi bandligi va farovonligi bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlarning mohiyati va ahamiyatini tushuntirib bering.
2. Aktivlar va passivlar o'rtasidagi farq nima?
3. An'anaviy va zamonaviy buxgalteriya hisobi dasturlari qanday ishlaydi?
4. Audit nima, ichki va tashqi auditning qanday farqli jihatlari bor?
5. Auditor kasbi egasi bilishi kerak bo'lgan jihatlarni aytib bering.
6. Auditor kasbi egasi davlat qonunchiligi haqida bilishi kerak bo'lgan jihatlarni aytib bering.
7. Auditor kasbi egasi tadbirkorlik faoliyatini rivojlanishda auditning o'rni va ahamiyati haqida nimalarni bilishi kerakligini aytib bering.
8. Auditor kasbini tanlashda nimalarga e'tibor qaratish kerak?
9. Auditor qanday fazilatlarga ega bo'lishi kerak?
10. Bandlikka, mehnat bozoriga ijobiy ta'sir ko'rsatishda buxgalteriya hisobining o'rni va ahamiyati nimadan iborat?
11. Buxgalter kasb egalari qanday bilim va fazilatlarga ega bo'lishi kerak?
12. Buxgalter kasb egasi mijozlar bilan ishlashda nimalarga e'tibor berishi kerakligini aytib bering.
13. Buxgalter kasbi egalarining korxonalardagi asosiy funksiyasi nimadan iborat.
14. Buxgalter kasbini tanlash qaroriga kelishingizga nima sabab bo'ldi?
15. Buxgalter kasbini tanlashdagi moddiy va ma'naviy motivlaringiz nimalardan iborat?
16. Buxgalter mutaxassisining kasbiy tayyorgarligiga qo'yiladigan talablarni tushuntirib bering.
17. Buxgalter uchun hissiy intellekt nima?
18. Buxgalter uchun kreativlik nima?
19. Buxgalter kasbini tanlash qarorini mustaqil o'zingiz qabul qilindingizmi yoki boshqa kishilar tavsiyasi asosida tanladingizmi?
20. Buxgalteriya hisobi va audit (tarmoqlar bo'yicha) ta'lim yo'nalishini tanlashingizdan asosiy maqsad nima?
21. Buxgalteriya hisobini takomillashtirish yuzasidan amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar.
22. Buxgalteriya hisobining asosiy vazifalari nimalardan iborat?
23. Buxgalteriya sohasida korrupsiyaning oldini olish va oshkoralikni ta'minlash bo'yicha islohotlar
24. Buxgalterning kasbiy fazilatlari va shaxsiy fazilatlari o'rtasidagi farq nima?
25. Byudjet-soliq ma'lumotlarining ochiqligi, to'liqligi va xalqaro standartlarga mosligini ta'minlash borasida islohotlar
26. Byudjet-soliq siyosati ustidan parlament va jamoatchilik nazoratini kuchaytirish borasida amalga oshirilayotgan qanday chora-tadbirlarni bilasiz

27. Debitor va kreditor qarzlarga nimalar kiradi?
28. Do'stlaringiz sizni fikringiz bilan ish tutishlariga intilasizmi?
29. Do'stlaringizni ko'pchiligini fikringizni qabul qilishga og'dira olasizmi?
30. Erkin iqtisodiy zonalar va kichik sanoat zonalarini tashkil etish borasida amalga oshirilayotgan islohotlarning mohiyati va ahamiyatini tushuntirib bering.
31. Foyda va daromad nima, ular qanday aniqlanadi?
32. Hisobot nima va buxgalteriya hisobotlari qanday tuziladi hamda tahlil qilinadi?
33. Hududlarda tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, ishsizlik va kambag'allikni qisqartirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlarning mohiyati va ahamiyatini tushuntirib bering.
34. Hujjat nima, buxgalteriyada elektron hujjatlar qanday hisobga olinadi?
35. Inventarizatsiya natijalarini aniqlash, rasmiylashtirish va hisobda aks ettirish tartibini tushuntirib bering.
36. Inventarizatsiya nima va u korxonada qanday amalga oshiriladi?
37. Inventarizatsiya nima va u qanday amalga oshiriladi?
38. Ishlarni bajarish va xizmatlarni ko'rsatishdan tushum hisobi
39. Korxona faoliyatini samarali faoliyat yuritishida buxgalteriya va audit ahamiyati nimadan iborat?
40. Korxonada muammoli vaziyat muhokamasida buxgalter o'zini qanday tutishi kerak?
41. Korxonada xodimlar maoshi qanday tizimda hisoblanadi va unda nimalarga e'tibor qaratish kerak?
42. Ko'zlagan maqsadlaringizni amalga oshirishda to'siq bo'lsa, siz ulardan osongina chekinasizmi?
43. Madaniyatli shaxs qanday xislatlarga ega bo'ladi?
44. Mamlakatda Buxgalteriya hisobini takomillashtirish borasidagi amalga oshirilayotgan islohotlar.
45. Mamlakatda investitsiya muhitini yanada yaxshilash va uning jozibadorligini oshirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlarning mohiyati va ahamiyatini tushuntirib bering.
46. Mamlakatda iqtisodiyot sohasiga oid amalga oshirilayotgan islohotlarning mohiyati va ahamiyati haqida tushuncha bering.
47. Mamlakatda iqtisodiyot sohasiga oid amalga oshirilayotgan islohotlarning mohiyati va ahamiyati haqida tushuncha bering.
48. Milliy iqtisodiyotning barqarorligini ta'minlashda buxgalteriya hisobini takomillashtirishning ahamiyati
49. Nizoni kelib chiqish sabablari nimalar va u qanday usullar yordamida hal etiladi?
50. Odamlar bilan tanishayotganda tashabbus ko'rsatish kerak bo'lsa, o'zingizda noqulaylik, hayajon, tortinishni his etasizmi?
51. O'zbekistonda bugungi iqtisodiy islohotlar negizida qanday maqsadlar ko'zda tutilgan?

52. O'zbekistonda bugungi iqtisodiy islohotlar negizida qanday maqsadlar ko'zda tutilgan?
53. Qaror qabul qilishda mavjud muammoni bartaraf etish yo'llarini tushuntirib bering
54. Siz korxona yoki guruh jamoat ishlariga qatnashasizmi?
55. Sizga yangi kompaniyaga kirishib ketish qiyinmi?
56. Sizning davlat va jamiyat oldidagi muqaddas burchingiz nimalardan iborat?
57. Suhbat chog'ida oddiy, ravshan, aniq va ishonarli tushunchalardan foydalanilmasa, qanday vaziyat yuzaga keladi?
58. Xalqaro buxgalteriya hisobi nima, uning milliy hisoblar tizimidan farqli jihatlari qanday?
59. Xarid va sotuv operatsiyalari qanday amalga oshiriladi va unda nimalarga e'tibor qaratiladi?
60. Xorijiy investitsiyalarni jalb etish borasidagi davlat siyosati va unda buxgalteriya hisobining o'rni qanday deb o'ylaysiz?